

Journal of Social Research in Uzbekistan



JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN
 journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>



HANDICRAFTS OF ANCIENT SAMARKAND-SOGDIANA**Ortiq Elmuratov***junior researcher, Master's student**Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan**National University of Uzbekistan**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Afrasiab, Tali-Barzu, amphora, krater, rhyton, glass, megaron, glassware, textile load, gemma.

Received: 16.11.24**Accepted:** 18.11.24**Published:** 20.11.24

Abstract: In the culture of Samarkand Sogd during the antique period, pottery, sculpture, glassmaking, and weaving flourished. Potters crafted pitchers, bowls, and amphorae, while sculptors created religious and cultural figures in the form of statues. Glassmakers produced vessels and ornaments, and weavers manufactured threads and fabrics. The craftsmanship of ancient Samarkand Sogd developed unique styles and technologies due to the fusion of Greek and local traditions, forming an essential part of the economy.

SAMARQAND SUG'DINING ANTIK DAVRI HUNARMANDCHILIK TURLARI**Ortiq Elmuratov***kichik ilmiy xodim, Magistratura talabasi**O'zR FA Tarix instituti**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Afrosiyob, Tali-Barzu, amfora, krater, riton, oynaxoya, megar, shisha, to'quvchilik yuki, gemma.

Annotatsiya: Samarqand Sug'di madaniyatida antik davrda kulolchilik, haykaltaroshlik, shishasozlik va to'quvchilik rivojlangan. Kulollar ko'za, jom va amforalar yasagan, haykaltaroshlar esa diniy va madaniy obrazlarni haykal shaklida yaratgan. Shishasozlar idish va bezaklar tayyorlagan bo'lsa, to'quvchilar ip va matolar ishlab chiqargan. Samarqand Sug'dining antik davri hunarmandchiligi yunon va mahalliy an'analar uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos uslub va texnologiyalarga ega bo'lib, iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil etgan.

ВИДЫ РЕМЕСЕЛ ДРЕВНЕГО САМАРКАНДСКИЙ СОГД

Ортик Эльмуратов*младший научный сотрудник, магистрант**Институт истории Академии наук Республики Узбекистан**Национальный университет Узбекистана**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Афрасиаб, Тали-Барзу, амфора, кратер, ритон, стекло, мега, стекло, ткачество, гемма.

Аннотация: В культуре Самаркандского Согда в античный период развивались гончарное дело, скульптура, стеклоделие и ткачество. Гончары изготавливали кувшины, чаши и амфоры, а скульпторы создавали религиозные и культурные образы в виде статуй. Стеклодувы делали посуду и украшения, а ткачи производили нити и ткани. Ремесло античного периода Самаркандского Согда сформировало уникальные стили и технологии, возникшие благодаря синтезу греческих и местных традиций, и стало важной частью экономики.

Samarqand Sug'di hududi antik davrda rivojlangan hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Bu davrda hunarmandchilik faoliyati iqtisodiyotning muhim qismi hisoblangan va turli xil hunarmandchilik turlari rivojlangan edi. Asosiy hunarmandchilik turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Kulolchilik, haykaltaroshlik, to'quvchilik, shishasozlik, metallsozlik, zargarlik, o'ymakorlik, suyakka ishlov berish va boshqalar.

Kulolchilik. Mahalliy va qadimiy yunon an'alarining uyg'unlashuvi (bu holat "Sharq ellinizmi" nomini olgan) ayniqsa, sopol buyumlarda jomlar, qadahlar, "megar" kosalar, oynaxoyalar (1-rasm), kraterlar (2-rasm), amforalar, ritonlar, baliq taomlari idishlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Ko'zasimon idishlar mashhur yunon lokli sopol buyumlariga taassub qilgan holda qalin angob va pardozlangan charm bilan qoplangan.

G. V. Shishkina tomonidan Afrosiyobda topilgan ellinistik davr sopol buyumlar tahlil qilgan va ko'plab mahalliy shakllarni aniqlagan. Bu mavzuga doir maxsus tadqiqot olib borib, Afrosiyobning ellinizmga xos xislatlarning ta'sirini O'rta Osiyo antik kulolchilik maxsulotlari to'plami o'zida namoyon etirgan.

Yunonlarga xos boshqa turdagi sopol buyumlarning biri – kraterdir. Uning bir namunasi 1995-yilda Afrosiyob shahristonidan, Afrosiyob III qatlamlaridan topilgan bo'lib, bu qatlamlar miloddan oldingi I yuzyillikdan milodiy II yuzyillikkacha sanalanadi.

Afrosiyobdan topilgan boshqa bir ellinistik shakl – megarli kosalaridir. Qadimgi yunon kulolchiligida keng tarqalgan idish shakllaridan biridir. Bu kosa odatda keng, silliq va yuzasi tekis bo'lgan shakllarga ega bo'ladi.

O'rta Osiyo keramikasida eng barqaror shakllardan biri – oynaxoyalar (suvi quyiladigan maxsus idish) edi. Oynaxoyalar asosan, uch qismli egri tomchi shakli bilan ajralib turadi. Shuni ta'kidlash joizki, ilk ellinistik qatlamlarda bu turdagi idishlar nisbatan kam uchraydi. Masalan, Afrosiyob II (miloddan oldingi IV–I yuzyilliklar) qatlamlarida oynaxoya turidagi ikki xil kulolchilik parchalari topilgan. Keyingi davrlarda Baqtriya va Sug'd hududlaridagi sopol buyumlar tarkibida oynaxoya ko'payadi.

Haykaltaroshlik. Qadimgi Sug'dda ellin ta'sirini sopol buyumlari bilan birgalikda koroplastika buyum namunalari orqali ham kuzatish mumkin. Bunda tafovutlar shunda edi-ki, agar yunon-rim dunyosida toshlardagi haykaltaroshlik ustunlik qilgan bo'lsa, O'rta Osiyoda (ma'lum bo'lsa ham) haykallar asosan loy quymalari, ba'zan esa gips qoliplaridan yasalgan. O'rta Osiyo plastik loyning xilma-xilligi bilan boydir. Haykalning qurishi paytida uning yorilib ketmasligi va kichrayishini kamaytirish uchun unga qamish tuki yoki maydalangan jun qo'shilgan. Asosiy tanaga qamishdan armatura yoki yogoch tayanch (o'zak)lar kiritilgan bo'lib, ketma-ket qatlam-qatlam haykal shaklini oshirib borish bilan uning yuqori qatlamiga oxirgi model shakli berilgan.

Loy juda plastik va ishlov berish uchun qulay ashyodir, lekin unchalik yorqin bo'lmagan rangga ega, shuning uchun mahalliy hunarmandlar loydan yasalgan haykallar va releflarni bo'yash usulidan foydalangan bo'lib, intererning yorqin bo'lmagan yorug'likda tasvirning modelini ajratib ko'rsatganlar. Tarkibi bo'yicha mineral bo'yoq, devoriy rang-tasvirda ishlatiladigan buyoq kabi to'g'ridan-to'g'ri loyning ustiga yoki oq pigment ustiga surtilgan. Bunda qizil rang tuslari ustunlik qiladi g'ishtin-qizil rangdan to qizg'ish va nozik pushti ranggacha ishlatilgan. Masalan, Sug'dda mayda plastika ellin an'alarining mahalliy talqinini namoyish etadi. Masalan, Afrosiyob va Tali Barzudan (miloddan oldingi 2-yuzyillik–milodiy 4-yuzyillik) topilgan haykalchalar shundan guvohlik beradiki, ellin badiiy tamoillari kirib kelishi barobarida mahalliy uslub ham shakllangan (gavda holatlarining qotib qolishi, mahalliy etnik xususiyatlarni talqin etish) (3-rasm).

Tadqiqotchilarning ko'pchiligi terrakota haykalchalari o'z vaqtida mashhur bo'lgan ibodatxonalaridagi haykallar ya'ni ilohlar tasvirining qayta ishlangan ko'rinishi deb hisoblashadi. Terrakota haykalchalarini tayyorlash an'anasi miloddan oldingi IV–III yuzyilliklar oxirida ellinlar an'analari ta'siri ostida paydo bo'lib, islomiyatning ilk davrlariga qadar mavjud bo'lgan.

Bugungi kungacha ma'lum bo'lgan antropomorf terrakota tasvirlarining asosiy qismi ayollarning haykallariga tegishli. Buni, birinchi navbatda sug'dliklarning tasavvurida ona ma'buda katta ahamiyatga ega bo'lganligi bilan izohlash mumkin. Uning siymosidagi ko'plab haykalchalar, ayniqsa Kushon davri uchun (I–III yuzyilliklar) xos bo'lgan. Tasvirlash qoidalariga ko'ra haykalning qo'l holati (bittasi ko'krakda, ikkinchisi tizza ustida) hamda meva, gul yoki o'simlik shoxini o'shlab turgani aks ettirilgan. Bu ma'budaning ismi hali ham aniqlanmagan, ammo unga belgi sifatida xizmat qilgan o'simliklar tasviri uning hosildorlik ma'budi bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Yunon

kiyimlarida (peplos, gimatiy, hiton) tasvirlangan ma'budalar keng tarqalgan. Shuningdek, Dionis, Gerakl, Afina, "yunon" jangchisi, musiqachilar, sopollarga yopishtirilgan "ellinistik boshlar" (silenlar, "Aleksandr"lar, satirlar) tasvirlangan haykalchalar paydo bo'lgan.

Baqtriya koroplastik san'atidan farqli o'laroq, Sug'd koroplastika obrazlarida qat'iylik va bir xillik ko'zlatilmaydi. Tadqiqotchilar buni dashtlarning tasviriy an'analari ta'siri hamda terrakota mahsulotlarining (tez-tez o'tkaziladigan diniy marosimlar uchun) ommaviy ishlab chiqarilishi bilan izohlaydilar, bu jarayonda badiiylik ma'lum darajada pasaygan.

Sug'dda sopol haykalchalarni yasash miloddan oldingi II yuzyillik oxiriga kelib ommalashgan ko'rinadi. Odatda sopol haykalchalar e'tiqod qilib kelingan xudolar haykallarining kichik nusxalari bo'lgan, deb hisoblanadi. Ularning ilk nusxasi mohir usta tomonidan loy, metall, tosh, yog'ochdan yasalgan va undan sopol nusxalari ishlangan.

Bu sopol nusxalarning o'zi ham boshqa ko'p sonli haykalchalar yasashida namuna vazifasini o'tagan. Biroq ayni jarayonning qayta-qayta takrorlanishi natijasida haykalchalarning hajmi kichrayib, detallari o'zgarib ketgan.

Qadimiy davr haykalchalarining alohida xususiyati ularning qizg'ish-qo'ng'ir rangdagi angob (suyuq loyga botirish) bilan qoplanganligidir. Kuydirilgan kulrang (bo'z) tuproqdan va to'q kulrang qoplamali haykalchalar ancha kam uchraydi. Nusxalar va ulardan namuna olib yasalgan sopol qoliplar yuqori baholangan va uzoq masofalarga "sayohat" qila olgan. Shuning uchun ham qadimgi dunyoning bir-biridan minglab kilometr uzoqda joylashgan hududlarida: Sharqiy O'rta dengizdan to O'rta Osiyo vohalari va Sharqiy Turkistongacha bo'lgan hududda uchraydigan haykalchalar hayron qolarli darajada bir-biriga o'xshash bo'lgan.

Qariyb ming yil davomida Samarqand terrakota plastika san'atining yorqin markazi bo'lgan. Afrosiyobdan topilgan va hozirda Davlat Ermitaj muzeyi to'plamlarida saqlanayotgan bir guruh buyumlar borki, ularga o'xshashlarini yunon kulollari yasagan mahsulotlar ichidan topish mumkin. Ular ichida eng qadimgisi Meduza Gorgonaning boshi shakli bo'rttirib ishlangan idishlarning bo'laklaridir. Bu antik dunyoda keng tarqalgan tumor bo'lib, yovuzlikdan saqlanish maqsadida turli narsalarga tushirilgan.

O'rta Osiyoda kulolchilik va haykaltaroshlik buyumlaridagi tasvirlariga ko'ra mahalliy hosildorlikka topinish ibodati va unga o'xshab ketadigan dionisiy davrasi topinishlari mashhur bo'lgan. Masalan, sharob quyiladigan, vulqon og'zi va chelak ko'rinishidagi sopol idishlarga Dionisning doimiy ilohiy yo'ldoshi Silenning boshi surati tushirilgan.

Sharqning dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalari terrakotalarida Buyuk Ona - Ma'budaning siymosi eng qadimgisidir. O'rta Osiyoda ellin davrida u odatda yalang'och holda tasvirlangan.

Samarqanddan topilgan ayol shaklidagi haykalchalarning ikki turi eramizning boshlanish davriga borib taqaladi. Bittasi xushqomat ayol shaklida bo'lib, etagi uzun ko'ylak ustidan nimcha, boshida yopinchik, qo'lida uchbarg ushlagan holda tasvirlangan. Chamasi, u suv va xosildorlik ma'budasi Anaxitadir.

Ikkinchi tur haykalchalarning ko'ylagi burmali, yunonlarning hitoniga o'xshagan, boshida salla, qalpoq yoki yopinchik, qo'llarida yumaloq meva (anor yoki olma) bor. Bu turdagi haykalchalarda ba'zan pastda go'dak ham tasvirlangan. Shubhasiz, u Sug'dda katta hurmatga sazovor bo'lgan Nannadir (Nannaya). Nannaga bag'ishlab ibodatxonalar qurilgan, uni turli san'at yodgorliklarida tasvirlashgan, ko'plab sug'dliklarning ismlari uning nomlari maznosi bilan aloqador bo'lgan.

Shishasozlik. Antik davrida shisha va undan turli mahsulotlar ishlab chiqarish boshqa sohalar qatorida yuksaladi. Shisha ishlab chiqarishda qadimgi Sug'dning markaziy shahri sifatida Afrosiyobning o'rnini yuqori. A.I. Terenojkin tomonidan 1948-yildayoq Afrosiyob IV qatlamidan miloddan oldingi II yuzyillikga oid ko'zyosh tomchisiga o'xshash uzunchoq shisha donalari topilgan (4-rasm). Hozircha Afrosiyob uchun eng qadimgi shisha topilma hisoblangan bu shisha donalarini G.V. Shishkina topilma yonidan chiqqan sopol idishlar bilan solishtirib, milodiy yuzyilliklar boshi bilan davrlashtirgan. Lekin, aynan qaysi hududda yasalgani haqida fikr bildirilmagan. Bu davrga tegishli idishlar kamligini inobatga olib M. Amindjanova, milodiy I–II yuzyilliklarda Afrosiyobda mustaqil shisha ishlab chiqarish mavjud bo'lmagan deb fikr bildirilgan. Shunday bo'lsada, arxeologik topilmalar antik davrda Samarqandda ham shishadan bezak buyumlari ishlanganligini ko'rsatadi.

Shuning bilan birga, o'zbek-fransuz ekspeditsiyasi Samarqand shahridan 30 km shimolda joylashgan ilk temir va antik davr yodgorligi hisoblangan Ko'ktepada izlanishlar olib borib, bir qator muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritishgan. 1999–2000-yillarda boshlangan ekspeditsiya muvaffaqiyatli harakati natijasida milodan oldingi II–I yuzyilliklarga oid boy mozar-qo'rg'on ochib o'rganildi. O'rganilgan qabr nafaqat Samarqanddagi, balki O'zbekistondagi eng yirik qabr hisoblanadi (maydoni 11x5.5 m, chuqurligi 6.5 m.). Qabrga 25-35 yoshdagi ayol dafn etilgan. Ayolning boshi sharqqa, yuzi tepaga qaratilgan. Ayol bilan birga qabrga qo'yilgan narsalar ayolning yuqori tabaqa vakili, yoki zadogon ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ko'ylak atrofida 345 dona oltindan yasalgan silindrsimon bargaklar, 57 dona shishadan yasalgan munchoqlarning topilishi bunga misoldir. Shisha munchoqlar tadqiqotchilar fikricha, Rim yoki Hindistonda ishlab chiqarilgan. Zodagon qabrida 57 dona shisha munchoq oltin bargaklar qatorida topilishi, yana uning qo'shni madaniyatlardan olib kelinishi qimmatbaho metall sifatida qaralganini anglatadi.

To'quvchilik. Antik davrda qadimgi Samarqand Sug'di hududi hunarmandchilikning to'quvchilik ishlab chiqarishi bilan ham mashhur edi. O'zbekiston-Fransiya qo'shma ekspeditsiyasi ishlagan yillar davomida (1989–2006) Afrosiyob shahar xarobasida topilgan ko'plab topilmalar

orasida to'quvchilik mahsulotlariga oid buyumlarning katta guruhi alohida ajralib turadi. Ular orasida to'quv dastgohlari uchun yuklar va ip yigirish uchun charxlar mavjud.

To'quv yuklari – turli shakllarda ishlangan, teshikka ega bo'lgan xom loydan yasalgan osma og'irliklardir. Ularning shakliga ko'ra, bir nechta turlari mavjud: disk shaklidagi, piramidasimon, yasmiqsimon, bikonik (ikkita konussimon qismdan iborat), silindrsimon va noodatiy shakldagi yuklar.

Disk shaklidagi to'quv yuklari eng ko'p topilgan (120 dan ortiq nusxada). Hajmi va og'irligi bo'yicha uchta kichik guruhga ajratilgan: yirik, o'rta va kichik yuklar. Yirik to'quv yuklarining og'irligi 500–700 g, diametri 11–16 sm va qalinligi 3,5–5,5 sm. O'rta to'quv yuklarining diametri 8,8–10 sm, qalinligi 2,5–5 sm va og'irligi 231–500 g. Kichik to'quv yuklari esa, diametri 6,6–7,8 sm, qalinligi 2,5–3,5 sm va og'irligi 132–187 g.

Piramidasimon yuklar kichik miqdorda uchraydi. Ular to'rtburchak poyali va uchi teshikli bo'lgan kesik piramida ko'rinishida bo'lib, 19 dona topilgan. Bu to'quv yuklarning balandligi 7–9 sm, asosining o'lchami 3,5–5,5x3,5–5,5 sm, og'irligi esa 106–215 g atrofida.

Bikonik to'quv yuklari – jami 73 dona topilgan. Ularga o'lchamlari bo'yicha xos xususiyatlari: diametri 4–7,5 sm, balandligi 2–5,8 sm, og'irligi 39,7–185,6 g orasida. Yasmiqsimon to'quv yuklari – jami 67 dona topilgan, o'lchamlari: diametri 4,5–8 sm, balandligi 3–4 sm, og'irligi 30–140 g.

Silindrsimon to'quv yuklari kam uchraydigan shakl bo'lib, jami 14 dona topilgan. Ularning o'lchamlari: balandligi 3,7–5,5 sm, diametri 4,5–5,6 sm, og'irligi 36–64 g. Noodatiy shakldagi yuklar (tasodifiy shaklda yasalgan loy yuklari) – 10 dona. Ular konussimon, yumaloq, uchburchaksimon shaklda uchraydi. Ba'zan pishirilgan loydan yasalgan yuklar ham uchraydi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, ular tasodifan o'choq yonida quritilganda pishirilgan, chunki ayrim yuklar o'tga yaqin joylashgan (5-rasm).

Shu tarzda, ekspeditsiya amalga oshirilgan uchta joydan jami 300 dan ortiq to'liq to'quv yuklari va ko'plab bo'laklar topilgan.

N. Almazova ma'lumotlarga ko'ra, sopol materiallar bilan birgalikda yuklar Afrasiyob-II B davriga tegishli. Shuning bilan birga, qazishmalar chog'ida sopol idishlarning devoridan yasalgan urchuqboshlar ham topilgan.

Afrasiyobda to'quv yuklarining dastlabki topilmalari A.I. Terenojkin tomonidan 1946 yilda uch joyda qayd etilgan.

A.I. Terenojkin Afrasiyobda to'quv yuklari miloddan oldingi IV–II yuzyilliklarga oid ekanini ta'kidlaydi va vertikal asosi bo'lgan to'quv dastgohining paydo bo'lishini Afrasiyob-III bosqichining muhim madaniy yutug'i ekanligini ta'kidlaydi.

XIX yuzyillikning 60–80-yillari G.V. Shishkina, M.K. Pachos, S.K. Kabanov, M. Sa'diyev, T.I. Lebedeva, Pol Bernardlar ham o'z qazishmalarida Samarqand Sug'di hududida qadimgi davr

to‘quv yuklarini topishga muvaffaq bo‘lishadi. Umumiy hisobda, bu hududdan hozirgacha 12 ta joyda to‘quv yuklari topilgan.

Vertikal to‘quv dastgohi ikki vertikal ustundan iborat bo‘lib, ular ustki qismida birlashtirilgan va yuqorida val (navoy) joylashgan bo‘lib, unga tayyor mato o‘ralgan. Valdan asos iplarini osib turadigan yuklamalar osilib turadi. Dastgohning taxminan o‘rtasida, ikkita yog‘och tirqishlar mavjud bo‘lib, ular bo‘shliq yaratish uchun ishlatilgan. Bir tirqish asos iplarining juft sonli qismlariga, ikkinchisi esa toq sonli qismlariga ulanadi. To‘quvchi har bir tirqishni navbatma-navbat oldinga surib, bo‘shliqni hosil qiladi, va shu bo‘shliq orqali to‘quv ipini tashlab yuboradi. Asos iplari to‘quvchilik yuklariga bevosita bog‘lmagan, balki ipning o‘rami orqali bog‘langan. Dastgohning eni taxminan 1,5 metr (to‘quvchining qo‘llarining kengligiga monand) bo‘lib, matoning eni esa 70 sm dan oshmagan.

Afrosiyobning shimoliy-g‘arbiy qismida qadimiy to‘quvchilar mahallasining topilishi hunarmandchilikning ushbu sohasi yaxshi yo‘lga quyilganidan dalolat beradi. Bu esa o‘z o‘rnida savollarni o‘rtaga tashlaydi: Nega bunday katta ko‘lamdagi ishlab chiqarish majmuasi kerak bo‘lgan? Samarqand Sug‘dida qanday matolar ishlab chiqilgan? To‘quvchilik yuklarining turli og‘irlikda ekanligi, bir nechta turdagi matolar ishlab chiqarilganligini taxmin qilish mumkin. Masalan, katta disk shaklidagi yuklar (500–700 g) qalin va mustahkam matolar ishlab chiqarishda ishlatilgan bo‘lishi mumkin. Taxminan 200 g og‘irlikdagi yuklar esa, nozik matolar (ehtimol, paxta yoki ipak) ishlab chiqarishda ishlatilgan.

Shubhasiz, bu kabi arxeologik ma‘lumotlar Samarqand Sug‘dning qadimgi hunarmandchilik an‘analari va iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Hududning to‘quvchilik sanoati faqat mahalliy ehtiyojlarni qondiribgina qolmay, balki o‘sha davrda shaharlardagi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirgan va o‘sha davrdagi eng qimmatli to‘qilgan matolarni ishlab chiqarishda yetakchi bo‘lgan.

Suyakka ishlov berish. Hunarmandchilikning ushbu turi mavjud bo‘lganligini Samarqand viloyati Qo‘rg‘ontepa (miloddan oldingi II – milodiy I yuzyiliklar) shahar xarobalaridan topilgan buyumlar orqali bilishimiz mumkin. Topilmalar orasida: qurol-yarog‘, sopol buyumlar, zargarlik buyumlari, shu jumladan, o‘yib ishlangan suyak plastinkalar (14 dona) topilgan. Suyak plastinkalar shuning bilan birga badiiy san‘at asari ham hisoblanadi. Plastinkalar yuzasida turli tasvirlar mavjud.

Zargarlik. 1998-yilda Ko‘ktepa shahar yodgorligining ark qismidan Saklar davriga oid ayol kishining qabri va undan 250 ga yaqin tilla taqinchoqlar – tillaqosh, tilla tugmachalar, kumush ko‘zgu, yarim qimmatbaho toshlar va shishadan yasalgan munchoqlar topilgan. Miloddan oldingi II-I yuzyilliklarga taalluqli xazinaning topilishi o‘zbek arxeologlarining mustaqillik yillaridagi eng yirik kashfiyotlaridan biri sifatida fan tarixi sahifalaridan o‘rin oldi. “Sak malikasi xazinasini”, “So‘g‘d malikasi” nomi bilan ilmiy muomalaga kirgan. Ushbu qimmatbaho topilmalar Samarqand Sug‘di hunarmandchilikning zargarlik sohasida qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

O‘ymakorlik. Qadimgi davr hunarmandchilikning yana turi – o‘ymakorlik bo‘lib, bu sohada qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlarga ishlov berib, yuzasida o‘yma naqshlar va tasvirlarni hosil qilgan. O‘ymakorlikda hunarmandlar turlicha gemma va bullarni yasaganlar. Afrosiyobdan yunon qurollarini ko‘tarib turgan jangchilar tasvirlangan qator gemmalar topilgan. Gemma ko‘pincha yasalgan qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlardan iborat bo‘lib, yuzasida o‘yma san’ati orqali turli xil tasvirlar, o‘yma naqshlar aks ettirilgan (6-7-rasm). Gemmalar ko‘pincha uzuk, marjon yoki boshqa zeb-ziynat buyumlariga joylashtirilgan bo‘lib, ular estetik va diniy ma’noga ega bo‘lgan. Afrosiyobdan topilgan eng qadimgi gemma-intaliya miloddan oldingi V asrga tegishli bo‘lib, unda soqolli kamonchi tasvirlangan va yonida o‘qilmas mixxat yozuvi joylashgan.

Intaliyalar va tangalardagi portret suratlarda insonning ichki dunyosi ochib beriladi. Qadim zamonlarda Markaziy Osiyoda plastik san’at monumental va kichik shakllarda alohida taraqqiyotga erishdi. Uning rivojlanishiga shak-shubhasiz ellinizm turtki berdi.

Hunarmandchilik topilmalari orqali Sug‘ddagi ellinistik madaniyatning boshqa ellinistik dunyo bilan qanday o‘xshashliklarga ega bo‘lganini va mahalliy san’atga yunonlar ta’sirining qanchalik chuqur kirib borganini tushunish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida, qadimgi davr Samarqand Sug‘di hududida haykaltaroshlik, kulolchilik, to‘quvchilik, shishasozlik, metallsozlik, zargarlik, o‘ymakorlik, suyakka ishlov berish kabi asosiy hunarmandchilik turlari rivojlanganligini aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Baratin Ch., Bolatti A., Almazova N. Rapport. Afrasiab, le grenier hellenistique. 2003.
2. Isamiddinov M., Khasanov M. «La tombe d’une princesse nomade à Koktepe près de Samarkand», en collaboration avec, Comptes rendus de l’Académie des Inscriptions et Belles-Lettres. N. 1, 2001.
3. Абдуллаев К. Греческие типы в керамике Согда и Бактрии // Проблемы истории, филологии, культуры. – 2010. – №1.
4. Абдуллаев К. Эллинистическая традиция в искусстве Согда и Бактрии//ИМКУ. Вып. 27. 1996.
5. Аминджанова М.О. Средневековые стеклянные сосуды из музеев Ташкента и Самарканда// История материальной культуры Узбекистана. Вып. 3. Ташкент. 1962.
6. Древнейшие государства Средней Азии и Кавказа. Ч.2. Средняя Азия. М., 1985.
7. Исамиддинов М., Рапен К., Грене Ф. Раскопки на городище Коктепа. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2000 йил. Самарқанд. 2001. №1.
8. Исамиддинов М.Х. Стратиграфия городища Еркурган в Южном Согде // СА. –1978. – №3.
9. Мешкерис В.А. Корoplastика Согда. – Душанбе, 1977.

10. Н. Алмазова. Ткачество в Самарканде античного времени // Самарканд шахрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни. «ФАН», 2007.
11. Пугаченкова Г.А. Из художественной сокровищницы Среднего Востока. – Ташкент, 1987.
12. Тереножкин А.И. Вопросы историко-археологической периодизации древнего Самарканда // ВДИ. – 1947.
13. Тереножкин А.И. Исследования на городище Афрасиаб в 1946 году. Архив Института археологии. Ф-4. Д-19.
14. Тереножкин А.И. Согд и Чач // КСИИМК, XXXIII. Москва-Ленинград, 1950.
15. Тереножкин А.И. Согд и Чач. КСИИМК XXXIII. М., 1950.
16. Ўзбекистон маданий мероси. Давлат Эрмитаж тўплами. VIII. Тошкент, 2020.
17. Ўзбекистон маданий мероси. Самарканд музей-қўриқхона тўплами. XVIII. Тошкент, 2020.
18. Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон маданий мероси Москва музейлари тўпламида. X. Тошкент, 2020.
19. Шишкина Г. В. Керамика конца IV—II вв. до н. у. (Афрасиаб II) // СА. 3, Ташкент. 1975. С. 28-51.
20. Шишкина Г.В. Ремесленная продукция средневекового Согда. Стекло Афрасиаба. Ташкент. Издательство «Фан» Узбекская ССР. 1986. С. 18.
21. Штакельберг Ю.И. Глиняные диски из Старой Ладogi // АСГЭ. 1962. № 4.